



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-may holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 41 480 (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 35 356) tani tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yillar kesimida (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-may holatiga ko‘ra, birlikda.)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 671 tani tashkil etmoqda.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, oylaviy korxonalar soni 20 taga, ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	670	5,6 %	Ishtixon t.	99	4,9 %
Samarqand t.	545	15,9 %	Paxtachi t.	90	7,1 %
Pastdarg‘om t.	201	6,6 %	Oqdaryo t.	87	4,9 %
Kattaqo‘rg‘on t.	144	6,9 %	Nurobod t.	82	6,3 %
Toyloq t.	129	6,8 %	Bulung‘ur t.	81	4,7 %
Urgut t.	122	3,8 %	Qo‘shrabot t.	74	6,4 %
Payariq t.	111	5,4 %	Narpay t.	70	4,8 %
Jomboy t.	103	6,2 %	Kattaqo‘rg‘on sh.	63	4,6 %

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar savdo sohasida 15 539 tani, sanoatda 5 496 tani, yashash va ovqatlanishda 3 328 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 396 tani, qurilishda 2 388 tani tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	12 011	Oqdaryo t.	1 770
Samarqand t.	3 418	Bulung'ur t.	1 719
Urgut t.	3 211	Jomboy t.	1 674
Pastdarg'om t.	3 054	Narpay t.	1 462
Kattaqo'rg'on t.	2 085	Kattaqo'rg'on sh.	1 384
Payariq t.	2 069	Nurobod t.	1 299
Ishtixon t.	2 007	Paxtachi t.	1 259
Toyloq t.	1 906	Qo'shrabot t.	1 152

2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 614 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	655	6,2 %	Ishtixon t.	96	5,6 %
Samarqand t.	540	17,3 %	Paxtachi t.	87	8,5 %
Pastdarg'om t.	197	7,6 %	Oqdaryo t.	86	5,6 %
Kattaqo'rg'on t.	141	8,1 %	Nurobod t.	80	7,5 %
Toyloq t.	127	7,7 %	Bulung'ur t.	78	5,4 %
Urgut t.	116	4,3 %	Qo'shrabot t.	72	7,9 %
Payariq t.	109	6,3 %	Narpay t.	69	5,9 %
Jomboy t.	100	6,9 %	Kattaqo'rg'on sh.	61	5,1 %


2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-may holatiga 35 588 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,2 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagi tartibda taqsimlanmoqda: savdo – 43,7 foiz, sanoat – 15,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,6 foiz, qurilish – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz va boshqa turlari – 11,1 foiz.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	10 597	Oqdaryo t.	1 528
Samarqand t.	3 122	Bulung'ur t.	1 452
Urgut t.	2 679	Jomboy t.	1 441
Pastdarg'om t.	2 593	Kattaqo'rg'on sh.	1 204
Kattaqo'rg'on t.	1 733	Narpay t.	1 179
Payariq t.	1 722	Nurobod t.	1 068
Ishtixon t.	1 704	Paxtachi t.	1 018
Toyloq t.	1 640	Qo'shrabot t.	908

2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "Sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-aprel oylarida axborot va aloqa sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 61 tadan 172 taga (o'sish 111 taga) yetdi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	652	6,2 %	Ishtixon t.	96	5,6 %
Samarqand t.	535	17,3 %	Paxtachi t.	87	8,6 %
Pastdarg'om t.	197	7,6 %	Oqdaryo t.	86	5,6 %
Kattaqo'rg'on t.	141	8,2 %	Nurobod t.	80	7,5 %
Toyloq t.	126	7,7 %	Bulung'ur t.	78	5,4 %
Urgut t.	114	4,3 %	Qo'shrabot t.	71	7,8 %
Payariq t.	108	6,3 %	Narpay t.	69	5,9 %
Jomboy t.	100	7,0 %	Kattaqo'rg'on sh.	61	5,1 %

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda. Kichik biznes subyektlarining asosiy qismi Samarqand shahrida (29,6 foiz), Samarqand tumani (8,7 foiz), Urgut (7,5 foiz) va Pastdarg'om (7,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda viloyatdagi jami kichik biznes subyektining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	10 478	Oqdaryo t.	1 524
Samarqand t.	3 098	Bulung'ur t.	1 446
Urgut t.	2 665	Jomboy t.	1 435
Pastdarg'om t.	2 577	Kattaqo'rg'on sh.	1 199
Kattaqo'rg'on t.	1 724	Narpay t.	1 176
Payariq t.	1 718	Nurobod t.	1 061
Ishtixon t.	1 702	Paxtachi t.	1 012
Toyloq t.	1 635	Qo'shrabot t.	906

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Nurobod t.	336
Samarqand t.	269
Pastdarg‘om t.	263
Kattaqo‘rg‘on t.	255
Oqdaryo t.	168
Bulung‘ur t.	152
Urgut t.	139
Payariq t.	120
Paxtachi t.	102
Samarqand sh.	101
Qo‘shrabot t.	99
Ishtixon t.	98
Jomboy t.	95
Narpay t.	90
Toyloq t.	69
Kattaqo‘rg‘on sh.	40



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 136
Urgut t.	753
Samarqand t.	581
Pastdarg'om t.	387
Ishtixon t.	305
Toyloq t.	283
Jomboy t.	280
Kattaqo'rg'on t.	276
Oqdaryo t.	236
Kattaqo'rg'on sh.	219
Bulung'ur t.	214
Payariq t.	204
Paxtachi t.	181
Narpay t.	178
Qo'shrabot t.	142
Nurobod t.	121



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 66,4 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan, – 94,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	794
Payariq t.	203
Pastdarg'om t.	183
Urgut t.	158
Samarqand t.	155
Oqdaryo t.	115
Toyloq t.	108
Kattaqo'rg'on t.	106
Kattaqo'rg'on sh.	100
Ishtixon t.	89
Jomboy t.	86
Qo'shrabot t.	66
Narpay t.	64
Paxtachi t.	58
Bulung'ur t.	57
Nurobod t.	46



Voliyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida hisoblangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, jami qurilish korxonalariga nisbatan:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,5 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,3 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 23,2 foizni tashkil etadi.

438


Fuqarolik
obyektlarini qurish

554

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 396


Bino va
inshootlar qurish



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	4 375
Samarqand t.	1 370
Pastdarg'om t.	1 276
Urgut t.	1 004
Payariq t.	820
Ishtixon t.	817
Toyloq t.	735
Bulung'ur t.	715
Kattaqo'rg'on t.	709
Oqdaryo t.	698
Jomboy t.	634
Narpay t.	613
Kattaqo'rg'on sh.	532
Paxtachi t.	495
Qo'shrabot t.	437
Nurobod t.	309



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 15 492 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasi ulushi 71,4 foiz;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasi 18,6 foiz;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash 10,0 foizini tashkil etadi.

1 564

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 887

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


11 088

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 342
Samarqand t.	258
Urgut t.	192
Pastdarg'om t.	180
Payariq t.	160
Kattaqo'rg'on t.	157
Toyloq t.	146
Jomboy t.	136
Ishtixon t.	131
Oqdaryo t.	116
Narpay t.	112
Kattaqo'rg'on sh.	109
Bulung'ur t.	105
Nurobod t.	69
Qo'shrabot t.	65
Paxtachi t.	50



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 328 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,8 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,2 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.

427

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 901


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	305
Samarqand t.	60
Urgut t.	50
Payariq t.	44
Oqdaryo t.	36
Kattaqo'rg'on sh.	35
Ishtixon t.	33
Pastdarg'om t.	28
Bulung'ur t.	19
Toyloq t.	18
Kattaqo'rg'on t.	17
Jomboy t.	15
Qo'shrabot t.	12
Narpay t.	9
Paxtachi t.	8
Nurobod t.	3



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 36,8 foizini tashkil etdi.


Shuningdek, axborot xizmati ko'rsatish sohasi 11,8 foizini, kompyuter dasturlashtirish maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar 36,0 foizini, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish 2,3 foizini, nashirlik faoliyati 11,9 foizini hamda dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyati bo'yicha 1,2 foizini tashkil etdi.



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	425
Toyloq t.	66
Urgut t.	60
Samarqand t.	59
Ishtixon t.	51
Payariq t.	46
Nurobod t.	46
Oqdaryo t.	45
Pastdarg'om t.	43
Kattaqo'rg'on sh.	39
Jomboy t.	38
Bulung'ur t.	26
Kattaqo'rg'on t.	25
Narpay t.	20
Paxtachi t.	18
Qo'shrabot t.	14



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 917 tasi yoki 89,8 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

-97,1 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni, o'sish sur'ati 110,5 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,8 foizini, o'sish sur'ati 100,0 foizni tashkil etdi.

8

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

21




992

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	383
Toyloq t.	85
Samarqand t.	83
Urgut t.	81
Pastdarg'om t.	59
Jomboy t.	50
Bulung'ur t.	35
Ishtixon t.	31
Oqdaryo t.	26
Narpay t.	24
Payariq t.	24
Kattaqo'rg'on sh.	23
Kattaqo'rg'on t.	23
Paxtachi t.	22
Nurobod t.	15
Qo'shrabot t.	11



2024-yil 1-may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

-quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 93,9 foizni tashkil etdi;

-ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 100,4 foizni;


-pochta va kuryerlik yo'nalishi 83,3 foizni tashkil etdi.

Havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 90,0 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024-yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl – subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;


-idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024-yil yanvar –aprel oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	507	6,4 %
Samarqand t.	457	22,3 %
Pastdarg'om t.	117	8,9 %
Urgut t.	84	4,9 %
Kattaqo'rg'on t.	82	8,0 %
Toyloq t.	73	9,1 %
Nurobod t.	70	7,9 %
Payariq t.	65	6,6 %

Qo'shrabot t.	60	9,2 %
Oqdaryo t.	58	6,0 %
Jomboy t.	58	7,2 %
Kattaqo'rg'on sh.	53	5,5 %
Bulung'ur t.	53	5,7 %
Ishtixon t.	52	7,1 %
Narpay t.	44	10,7 %
Paxtachi t.	38	7,1 %


2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024-yil 1-may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 35 588 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 22 697 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi va tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkin, mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	7 911	Bulung'ur t.	925
Samarqand t.	2 046	Nurobod t.	882
Urgut t.	1 727	Jomboy t.	810
Pastdarg'om t.	1 322	Toyloq t.	799
Kattaqo'rg'on t.	1 025	Ishtixon t.	729
Payariq t.	992	Qo'shrabot t.	653
Oqdaryo t.	974	Paxtachi t.	532
Kattaqo'rg'on sh.	960	Narpay t.	410

2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Xususiy korxonona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Hududlar kesimida


Toyloq t.	31	8,0 %	Urgut t.	9	1,7 %
Samarqand sh.	30	3,9 %	Narpay t.	7	1,6 %
Samarqand t.	27	10,5 %	Oqdaryo t.	6	2,3 %
Paxtachi t.	21	6,4 %	Bulung'ur t.	3	1,7 %
Pastdarg'om t.	19	4,1 %	Payariq t.	3	3,2 %
Ishtixon t.	18	3,4 %	Nurobod t.	2	1,6 %
Kattaqo'rg'on t.	16	7,5 %	Qo'shrabot t.	1	0,9 %
Jomboy t.	12	5,5 %			

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,4 foizni tashkil etgan.

Xususiy korxonalar sonining eng ko'p ulushi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Samarqand shahrida – 771 ta, Urgut tumani – 545, Ishtixon – 530, Pastdarg'om -463 va Narpay tumani– 445 tani tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	771	Samarqand t.	256
Urgut t.	545	Jomboy t.	219
Ishtixon t.	530	Kattaqo'rg'on t.	212
Pastdarg'om t.	463	Bulung'ur t.	180
Narpay t.	445	Nurobod t.	129
Toyloq t.	386	Kattaqo'rg'on sh.	113
Paxtachi t.	327	Qo'shrabot t.	108
Oqdaryo t.	261	Payariq t.	94

2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	118	6,4 %	Urgut t.	23	6,1 %
Pastdarg'om t.	61	7,8 %	Toyloq t.	23	5,1 %
Samarqand t.	56	7,0 %	Oqdaryo t.	22	7,8 %
Kattaqo'rg'on t.	43	9,2 %	Bulung'ur t.	22	6,7 %
Payariq t.	39	6,4 %	Narpay t.	18	5,9 %
Jomboy t.	30	7,5 %	Qo'shrabot t.	11	10,3 %
Paxtachi t.	28	19,2 %	Kattaqo'rg'on sh.	8	6,4 %
Ishtixon t.	26	6,3 %	Nurobod t.	8	16,7 %

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-may holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,5 foizni tashkil etgan.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 116,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 851	Urgut t.	379
Samarqand t.	805	Bulung'ur t.	329
Pastdarg'om t.	782	Narpay t.	303
Payariq t.	607	Oqdaryo t.	283
Kattaqo'rg'on t.	469	Paxtachi t.	146
Toyloq t.	450	Kattaqo'rg'on sh.	125
Ishtixon t.	416	Qo'shrabot t.	107
Jomboy t.	400	Nurobod t.	48

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


2024-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	35	12,5 %	Jomboy t.	2	5,9 %
Samarqand t.	6	17,6 %	Urgut t.	2	4,7 %
Pastdarg‘om t.	5	15,6 %	Oqdaryo t.	1	3,7 %
Kattaqo‘rg‘on t.	3	21,4 %	Bulung‘ur t.	1	5,3 %
Qo‘shrabot t.	3	13,6 %	Ishtixon t.	1	6,7 %
Toyloq t.	3	21,4 %	Paxtachi t.	1	10,0 %


2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 10,6 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 109 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallab viloyatda chet el investitsiya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,6 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya Respublikasi (ulushi 18,1 foiz) va Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 17,6 foiz) davlatlari ham yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	281	Ishtixon t.	15
Urgut t.	43	Kattaqo'rg'on t.	14
Jomboy t.	34	Toyloq t.	14
Samarqand t.	34	Kattaqo'rg'on sh.	13
Pastdarg'om t.	32	Payariq t.	12
Oqdaryo t.	27	Nurobod t.	12
Qo'shrabot t.	22	Paxtachi t.	10
Bulung'ur t.	19	Narpay t.	3

2024-yil yanvar-aprel oylarida , birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 302 tasi qo'shma korxonalar, 283 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri eldi.

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Xorijiy korxonalar

Qo'shma korxonalar

163	Samarqand sh.	118
4	Kattaqo'rg'on sh.	9
15	Oqdaryo t.	12
10	Bulung'ur t.	9
12	Jomboy t.	22
6	Ishtixon t.	9
6	Kattaqo'rg'on t.	8
14	Qo'shrabot t.	8
1	Narpay t.	2
7	Payariq t.	5
13	Pastdarg'om t.	19
3	Paxtachi t.	7
12	Samarqand t.	22
5	Nurobod t.	7
7	Urgut t.	36
5	Toyloq t.	9

2024-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Xorijiy korxonalar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Qurilish




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Qo'shma korxonalar


Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 66-235-14-42